HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORINING TRANSFORMATSIYASI

Mirzapo‘latova Fotima Sanjar qizi
Qarshi Davlat Universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi 3-kurs talabasi
ORCID: 0009-0000-8363-9632
e-mail:mirzapolatovafotima@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida yuz berayotgan tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarga bog‘liqlibgi, bandlik tizimining transformatsiyasi hamda zamonaviy texnologiyalarning ishchi kuchiga ta'siri ilmiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Xususan, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli platformalar, masofaviy mehnat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tobora rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi va zamonaviy kasblar, mavjud kasblarga qo‘yilayotgan malaka talab va darajalari hamda mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi amalga oshirilishi kutilayotgan islohotlar, IT sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va ularning bandlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, transformatsiya, bandlik, IT, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, innovatsiya

Kirish: XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal su‘atda rivojlanishi iqtisodiyotda mavjud barcha tarmoqlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va yangi biznes modellarini ishlab chiqish va shakllantirish orqali iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylandi. Jahon banki ma'lumotlariga asosan, raqamli texnologiyalar global iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanib, internet, sun’iy intellekt va raqamli xizmatlarning kengayishi mehnat unumdorligini sezilarli darajada o‘z ta‘sini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt ayrim kasblarga bo‘lgan talabni kamaytirayotgan bo‘lsa, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori tushunchalari: Raqamli iqtisodiyot – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan iqtisodiy faoliyat ajralmas qismidir.

Mehnat bozori esa ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarninamoyon etadi. Raqamlashtirish natijasida mehnat bozorining tuzilishi o‘zgarib, masofaviy ish, frilans, elektron tijorat va platforma iqtisodiyoti kun sayin keskin rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha platforma iqtisodiyotida ishlayotganlar soni 160 million nafardan oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich yildan-yilga ortib borayotgani aks etmoqda. Mehnat bozorining transformatsiyasi Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat bozorida tub tarkibiy o‘zgarishlarni yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, robototexnika, katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalarning ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalariga qo‘llash va keng joriy etilishi natijasida mehnatni tashkil etishning an'anaviy shakllari o‘zgarib, yangi bandlik modellari yaratilmoqda. Korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviylashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot hamda xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan ishlar kengtarg‘ib qilinmoqda. Natijada ayrim oddiy

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

va takrorlanuvchi vazifalarni bajaruvchi kasblarga bo‘lgan talab qisqarayotgan bo‘lsa, yuqori malakali, zamonaviy texnologiyalarni boshqara oladigan mutaxassislarga bo‘lgan talab keskin ortmoqda ortib bormoqda.

O'zbekistonda mehnat bozoridagi o'zgarishlar O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va mehnat bozorini zamonaviy talablarga moslashtirish va ishchi kuchi o‘rinlarini kengaytirish maqsadida "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur strategiya davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog‘liqni saqlash va xizmatlar sohasini ko‘lamli raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni o‘qitishni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda mamlakat hududida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga qayd etildi. Xususan, IT Park faoliyati kengayib, unda faoliyat yuritayotgan rezident kompaniyalar soni 2 900 tadan oshdi**.** So‘nggi besh yil davomida IT xizmatlari eksporti 170 million AQSH dollaridan qariyb 1 milliard AQSH dollarigacha oshdi. Shuningdek, IT Park tarkibida 750 dan ortiq xorijiy kompaniya faoliyat yuritmoqda va ushbu sohada 40 mingga yaqin yosh mutaxassis ish bilan ta’minlangan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi muhim IT markazlaridan biriga aylanib borayotganini aks ettiradi. Muammolar va istiqbollar Raqamli iqtisodiyotning keskin sur‘atlarda rivojlanishi mehnat bozorida yangi imkoniyatlarni yaratishi bilan bir qatorda, ko‘plab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Eng dolzarb muammolardan biri mehnat bozori talab qilayotgan zamonaviy kasbiy kompetensiyalar bilan ishchi kuchining mavjud malakasi o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Jahon iqtisodiy forumining hisobotiga ko‘ra, 2030-yilgacha mavjud kasbiy ko‘nikmalarning qariyb 40 foizi o‘zgarishi ko‘zda tutilmoqda. Shu sababli dunyo bo‘yicha xodimlarning 61 foizi yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi zarur bo‘ladi. Hisobotda, shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining butun mamlakat hududi bo‘yicha joriy etilishi natijasida 170 millionga yaqin yangi ish o‘rni yaratilishi, 92 million ish o‘rni esa qisqarishi taxmin qilingan. O‘zbekiston uchun ham raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda axborot texnologiyalari sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy dasturlash, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik yo‘nalishlarini kengaytirish va qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan ishchi va malakali xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga moslashish imkonini beradi.

Xulosa Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotning jadal sur‘atda rivojlanib borishi mehnat bozorining tarkibi, mazmuni va faoliyat yuritish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli platformalarning keng joriy etilishi natijasida an'anaviy kasblarning ayrim turlariga bo‘lgan talab kamayib, yuqori malaka va raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni talab etuvchi yangi kasblar shakllanmoqda. Shu bilan birga, masofaviy mehnat, frilans va platforma iqtisodiyoti kabi bandlikning zamonaviy shakllari rivojlanib, mehnat bozorining moslashuvchanligi va samaradorligini oshirmoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi, IT sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, elektron hukumat tizimini takomillashtirish hamda yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Biroq, raqamli transformatsiya va texnika, texnologiyalar sharoitida malakali hodimlar yetishmovchiligi, hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovut va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. World Economic Forum. (2025). The Future of Jobs Report 2025. Geneva: World Economic Forum.
3. International Labour Organization (ILO). (2024). World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: ILO.
4. World Bank. (2021). World Development Report 2021: Data for Better Lives. Washington, DC: World Bank.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2024). OECD Digital Economy Outlook 2024. Paris: OECD Publishing.
6. United Nations Development Programme (UNDP). (2025). Digital Economy Country Assessment: Uzbekistan. New York: UNDP.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati to‘g‘risida statistik to‘plam. Toshkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent.
9. IT Park Uzbekistan. (2024). 2024-yil yakunlari bo‘yicha IT Park faoliyati va IT xizmatlari eksporti to‘g‘risida hisobot. Toshkent.